

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA**

YURIDIK XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi. Maxsulot yetkazib berish shartnomasi.

Shofirkon tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi va “JO‘YNAV CITY SAVDO VARAKA” MCHJ o‘rtasida tuzilgan 15.524.000 so‘mlik eshik va deraza yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot: Shofirkon tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022-yil 31-avgust sanasida markazga yuridik xulosa uchun taqdim etilgan.

Loyiha tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlari asosida ko‘rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



N.Hamroyev

ТЎЛОВ ЖАДВАЛИ

Шофиркон туман Махалла ва нурунийларни қўллаб -қувватлаш бўлими ва “Жўйнав Ситй Савдо Барака” МЧЖ билан 15 524 000 сум умумий суммадаги № 5-2-41- MNQ/2022-сонли 31-август 2022 йил шартномага

(сўмда)

2022 й. ойлар номи	Харажатлар тури			Жами
	42-52-110			
Январ				
Феврал				
Март				
Апрел				
Май				
Июн				
Июл				
Август				
Сентябр	15 524 000			15 524 000
Октябр				
Ноябр				
Декабр				
Жами йил бўйича	15 524 000			15 524 000

Жами: 15 524 000 (Ўн беш миллион беш юз йигирма тўрт минг) сум

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 30% и 4 657 200 (тўрт миллион олти юз эллик етти минг икки юз) сум 2022 йилнинг сентябр ойининг 30 санасигача олдиндан тўланиши лозим.



Рахбар

М.Ў.

Бош ҳисобчи

И.Исмоилов
С.Шарипов

Ҳазначилик бўлини маси
ходими қабул қилди
2022 й. « ___ » _____

(имзо)

Бюджетдан маблағ олувчи
ходими қабул қилди
2022 й. « ___ » _____

(имзо)

MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

“JO’YNAV CITY SAVDO VARAKA” MCHJ (keyingi o‘rinlarda “Yetkazib beruvchi” deb yuritiladi), o‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi direktori B.Sohibov bir tomondan va Shofirkon tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi), o‘zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari N.Ismoilov ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. ShARTNOMANING PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Yetkazib beruvchi Buyurtmachiga quyida ko‘rsatilgan miqdor va narxda tovar (mahsulot) yetkazib berish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa o‘z navbatida tovarni (mahsulotni) qabul qilib olib haqqini to‘lash majburiyatini oladi:

№	Tovar (Mahsulot) nomi	O‘lchov birligi	Soni	Narxi	Bahosi QQS bilan
1	Eshik Akfa 2x3	Dona	1	2 874 000	2 874 000
2	Deraza AKFA	Dona	10	540 000	5 400 000
3	Eshik MDF	Dona	5	1 450 000	7 250 000
	J A M I:		-		15 524 000

1.2. Mazkur shartnomaga asosan yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilgan tovar (mahsulot)ni yetkazib berish muddati 2022-yil 31-sentabr.

2. TO‘LOV ShARTLARI

2.1. Ushbu shartnomaning umumiy summasi **15 524 000 (O‘n besh million besh yuz yigirma to‘rt ming)** so‘mni tashkil etadi QQS bilan.

2.2. Sotib olinadigan Tovar (mahsulot) uchun oldindan to‘lov miqdori **4 657 200 (To‘rt million olti yuz ellik yetti ming ikki yuz)** so‘mni, ya‘ni belgilangan summaning **30 foizini tashkil qiladi** va bu oldindan to‘lov shartnoma imzolanganidan keyin 15 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi. Yakuniy to‘lovning miqdori esa **10 866 800 (O‘n million sakkiz yuz oltmish olti ming sakkiz yuz)** so‘mni, ya‘ni kelishilgan summaning **70 foizini tashkil etadi** va bu yakuniy to‘lov hisob-faktura (yoki ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat) taqdim qilingandan so‘ng joriy moliya yili davomida amalga oshiriladi.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24 avgustdagi 241-sonli qarorining 1.1. bandida "Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo‘yicha summasi bir milliard so‘mgacha tuziladigan shartnomalarida 30 foiz miqdorida oldindan to‘lovni amalga oshirish nazarda tutilgan".

2.4. To‘lov shakli **naqd pulsiz pul ko‘chirish yo‘li** bilan amalga oshiriladi.

3. ShARTNOMA TARAFLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Yetkazib beruvchining huquqlari:

- sotilgan tovar haqqini to‘lashni;
 - tovarni o‘z vaqtida qabul qilib olishni;
 - shartnoma shartlariga to‘liq rioya etishni;
 - Buyurtmachi tomonidan o‘ziga yetkazilgan zararlarining qoplanishini talab qilish.
- Buyurtmachi qonun hujjatlarida belgilangan asoslarsiz mahsulot yetkazib beruvchi-

Yetkazib beruvchidan tovarni qabul qilib olmagan yoki tovarni rad etgan hollarda mahsulot yetkazib beruvchi-Yetkazib beruvchi Buyurtmachidan tovar haqini to'lashni talab qilishga haqli.

3.2. Yetkazib beruvchining majburiyatlari:

- tovarni Buyurtmachiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan davlat standartlariga muvofiq sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni Buyurtmachiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;

- tovarni Buyurtmachiga topshirgunga qadar saqlash.

3.3. Buyurtmachining huquqlari:

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan davlat standartlariga muvofiq sifatdagi tovarni topshirishni

talab qilish;

- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni talab qilish.

3.4. Buyurtmachining majburiyatlari:

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;
- Yetkazib beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Buyurtmachi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida Yetkazib beruvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart.

4. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI

- 4.1. Tovarlar tomonlar kelishuviga ko'ra Buyurtmachi ning omboriga yetkazib beriladi.
- 4.2. Yetkazib beruvchi tovarlarni o'z transportida yetkazib beradi
- 4.3. Tovarni topshirish, qabul qilish joyi Buyurtmachi ning ombori hisoblanadi.
- 4.4. Tovarni topshirish muddati avans to'langan kundan boshlab 5 ish kunini tashkil qiladi.

4.5. Buyurtmachi ga yetkazib berilgan mahsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda hisob- varaqni rasmiylashtirish sanasi Buyurtmachi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

4.6. Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kundan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqea sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

5.1. Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to'g'risidagi Qonuni va ushbu shartnomaga asosan hal qilinadi.

5.2. Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.3. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, sotuvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima sotuvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

5.5. But bo'lmagan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o'zga muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart, bundan buyon tovarlar butlab berilgunga qadar ularning haqini to'lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli, yetishmayotgan qismlar qiymatini qo'shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli. Tovarlar yetkazib beruvchi belgilangan muddatda tovarlarni butlab bermasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) but bo'lmagan tovarlarni qaytarib berishga hamda but bo'lmagan tovarlarni but tovarlarga almashtirishni talab qilishga haqlidir.

5.6. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

5.7. Tovarlar tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

5.8. Tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro muzokara olib borish yo'li bilan hal qilinadi, agar tomonlar kelisha olmasalar yuzaga kelgan nizolar qonunchilikka muvofiq iqtosodiy sud tartibida hal etiladi.

VI. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

6.1. Shartnomaning taraflari, ular tomonidan jalb qilinadigan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlanishi lozim.

6.2. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

6.3. Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va

ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

6.4. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

VII.FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1 Tomonlarga bog'liq bo'lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiyalar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.2. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtdan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

VIII.QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8.2. Shartnoma taraflaridan hech biri boshqa tomonning roziligisiz ushbu shartnoma bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxsga berishga haqli emas.

8.3. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va **2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.**

8.4. Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish amaldagi qonunchilikka muvofiq yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflar tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Mazkur shartnoma taraflarning kelishuvi bilan, bir tomon boshqa tomonni shartnomani bekor qilish vaqtidan 30 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.

8.6. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

8.7. Taraflarning manzili yoki hisob raqamlari o'zgarigan hollarda ushbu o'zgarish to'g'risida boshqa tarafga 3 kun ichida xabar beradi.

10.TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«Yetkazib beruvchi»	«Buyurtmachi »
«JO'YNAV CITY SAVDO BARAKA MCHJ Manzil: Buxoro viloyati Shofirkon tumani, Jo'ynav MFY	Shofirkon tuman Maxalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi Manzil:Shofirkon tuman Mustaqillik ko'chasi 4-uy
Tel./faks +99894 976-11-11	Tel./faks 50-2-32-05
h/v 20208000005372756001	sh/h* 100022860062587011906259008
Bank nomi: ASIA ALLIANCE BANK ATB Buxoro filiali	budgetdan mablag' oluvchi STIR: 207319105
MFO 01137	OKONX:97600
	G'azna h/v: 23402000300100001010

OKONX 42210

STIR 308376088



Rahbar

(vakolatli shaxs F.I.Sh. va imzosi)

B.Sohibov

“Toshkent markaziy” bankning
bank kodi

MFO:

00014

STIR:201122919

Rahbar

N.Ismoilov

(vakolatli shaxs F.I.Sh. va imzosi)



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code
ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	NO“MONJON ISMOILOV IMOM O‘G‘LI
--------------------	--------------------------------

Imzolangan sana	31 avr 2022 12:36
-----------------	-------------------

Hujjat kodi	CR4350075028
-------------	--------------

Hulosa kodi	JF1473884411
-------------	--------------